

SO‘Z URG‘USINING NUTQIY VA BADIY-ESTETIK VAZIFALARI

Mirxoliyev Hayotjon Niyatqobul o‘g‘li

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va gumanitar fanlar kafedrasida o‘qituvchisi.

mirxoliyev_hayotjon@katdpi.uz

Abduaxatova O‘g‘iloy Mirzoxid qizi

Kattaqo‘rg‘on davlat pedagogika instituti
O‘zbek tili va adabiyoti yo‘nalishi 1-bosqich talabasi.

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20075932>

Annotatsiya. Mazkur maqolada so‘z urg‘usining nutqiy hamda badiiy-estetik vazifalari tahlil qilinadi. Unda urg‘uning til tizimidagi o‘rni, uning fonetik, morfologik va stilistik jihatlar bilan o‘zaro bog‘liqligi yoritilgan. Shuningdek, o‘zbek tilshunosligida urg‘u masalasining o‘rganilish tarixi, yetuk olimlarning bu boradagi ilmiy qarashlari hamda badiiy nutqda urg‘uning ifodaviylikni oshirishdagi roli misollar asosida ochib berilgan. Maqolada urg‘uning nutq mazmunini aniqlashtirish, emotsional-ekspressivlikni kuchaytirish va estetik ta‘sirni ta‘minlashdagi ahamiyati asoslab beriladi.

Kalit so‘zlar: So‘z urg‘usi, fonetika, nutq madaniyati, badiiy nutq, estetik ta‘sir, ifodaviylik, emotsionallik, stilistika, talaffuz, tilshunoslik, kommunikativlik, ohang, semantika, nutqiy ta‘sir.

Annotation. This article analyzes the speech and artistic-aesthetic functions of word stress. It highlights the role of stress within the language system and its relationship with phonetic, morphological, and stylistic aspects. The study also examines the history of the investigation of stress in Uzbek linguistics, including the scientific views of prominent scholars on this issue. Furthermore, the article explains the role of stress in enhancing expressiveness, emotional coloring, and aesthetic impact in artistic speech. The importance of stress in clarifying meaning and strengthening communicative effectiveness is substantiated.

Keywords: Word stress, phonetics, speech culture, artistic speech, aesthetic impact, expressiveness, emotionality, stylistics, pronunciation, linguistics, communicativeness, intonation, semantics, speech influence.

Аннотация. В данной статье анализируются речевые и художественно-эстетические функции словесного ударения. Освещается роль ударения в системе языка, его взаимосвязь с фонетическими, морфологическими и стилистическими аспектами.

Также рассматривается история изучения ударения в узбекском языкознании и научные взгляды известных ученых по данной проблеме. Особое внимание уделяется роли ударения в повышении выразительности, эмоциональности и эстетического воздействия художественной речи. Обосновывается значение ударения в уточнении смысла и усилении коммуникативной эффективности.

Ключевые слова: словесное ударение, фонетика, культура речи, художественная речь, эстетическое воздействие, выразительность, эмоциональность, стилестика, произношение, языкознание, коммуникативность, интонация, семантика, речевое воздействие.

KIRISH. Birinchi Prezidentimiz I. A. Karimovning tashabbuslari bilan “Ta‘lim to‘g‘risidagi” Qonun: “Kadrlar tayyorlash Milliy dasturi”. “Uzluksiz ta‘lim tizimi uchun davlat

ta'lim standartlarini ishlab chiqarish to'g'risidagi qarori va hozirgi Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev tomondan ushbu qonunlarga o'zgarish kiritish va qo'shimchalar qo'shish haqidagi farmoni ona tili va boshqa fanlar o'qitish va o'rgatish borasidagi muammolarning yechimi bo'lmoqda deb bemalol ayta olamiz. Bu urinish va yaratilayotgan sharoitlarning sababini Prezidentimiz Sh. M. Mirziyoyev shunday ta'kidlaydilar: "Farzandlarimizni mustaqil fikrlaydigan, zamonaviy bilim va kasb-hunarlarini chuqur egallagan, mustahkam hayotiy pozitsiyaga ega, chinakam vatanparvar insonlar sifatida tarbiyalash biz uchun hamisha dolzarb masala hisoblanadi" [1]. Bugungi kunda ta'lim tizimida o'quvchilarning nafaqat keng bilim va professional ko'nikmalarni egallashi, ayni paytda chet mamlakatlardagi tengdoshlari bilan faol muloqot qilish, dunyoda ro'y berayotgan barcha voqea-hodisalar, yangilik va o'zgarishlardan atroflicha xabardor bo'lish, jahondagi ulkan intellektual boyligni egallashiga katta ahamiyat berilmoqda. Bu kabi vazifalarni to'laqonli amalga oshirishda asosiy vositalardan biri hisoblangan o'z ona tilimizni ta'limning barcha bosqichlarida o'rgatishni tashkil etish dolzarb masala hisoblanadi.

Darhaqiqat, mamlakatimizda xalqimiz ma'naviy rivoji uchun barcha sharoitlar yaratilayotgan bir paytda, tilshunoslik fani ham shu maqsad uchun xizmat qilmog'i darkor. Mustaqil rivojlanish yo'lini tanlagan milliy tilshunosligimiz hozirgi paytda, rivojlanish yanayam davom etmoqda.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR. Tilning eng muhim fonetik jihatlaridan biri bu urg'udir. So'z urg'usi tildagi fonetik, morfologik va stilistik tizimlar o'rtasida bog'lovchi vazifani bajaradi. U nafaqat so'zning talaffuzda to'g'ri aytilishini, balki ma'noning aniqligini, fikrning ifodaviyligini ham ta'minlaydi. Shunday qilib, so'z urg'usi bu tilning nafaqat fonetik, balki nutqiy va badiiy-estetik jihatdan ham muhim vositasidir.

O'zbek tilshunosligida so'z urg'usi masalasi ko'p asrlik tarixga ega bo'lib, bu masala turli davrlarda fonetika, orfoepiya, stilistika va poetika fanlari doirasida o'rganilgan. A. G'ulomov [8:301], S. Usmonov [7:220], A. Madvaliyev [3:147], N. Mahmudov [2:230], B. O'rinboyev [6:241], H. Ne'matov [5:310], M. Asqarova [9:205] kabi olimlarning tadqiqotlarida urg'u masalasi, uning turlari, talaffuzdagi o'rni, shuningdek, badiiy nutqdagi estetik ta'siri alohida tahlil etilgan. Ularning fikricha, urg'u nafaqat tovush tizimining tabiiy elementi, balki ma'no, tuyg'u va ohangni shakllantiruvchi estetik hodisadir.

Urg'u nutq jarayonida so'zning ma'lum bir bo'g'iniga kuchliroq talaffuz berish orqali ajralib turadi. Shu kuchaytirish natijasida tinglovchining e'tibori aynan o'sha bo'g'inga qaratiladi va so'zning ma'nosi to'liqroq, ta'sirchanroq bo'lib eshitiladi.

Badiiy nutqda esa bu jarayon yanada murakkablashadi: urg'u orqali so'zlar orasidagi emotsional munosabat, muallifning kayfiyati va fikr ohangi ifodalanadi. Shunday qilib, urg'u so'zning mazmuniy-estetik yukini oshiradi, uni his-tuyg'u bilan boyitadi.

So'z urg'usining nutqiy ahamiyati shundaki, u fikrning to'g'ri anglanishini ta'minlaydi.

Masalan, "u keldi" va "u keldi!" gaplarida urg'u ohangi o'zgargan sari ularning semantik va hissiy ma'nosi ham o'zgaradi. Demak, urg'u nutqning mazmunini, kayfiyatini va mantiqiy tuzilishini boshqaruvchi vositadir. Shuningdek, urg'u sintaktik birliklarning talaffuzi va ohangini boshqaradi, shu orqali nutqning tabiiy oqimini tashkil qiladi.

Badiiy-estetik jihatdan, urg'u so'zning obrazlilik, emotsionallik, ohangdorlik va ifodaviylik darajasini oshiradi. She'riyatda, nasrda, dramatik asarlarda urg'u estetik ta'sirning eng kuchli vositalaridan biridir.

Masalan, Alisher Navoiy, Abdulla Qodiriy, Oybek, Erkin Vohidov, Abdulla Oripov, O'tkir Hoshimov kabi adiblar asarlarida urg'u nafaqat talaffuz darajasida, balki badiiy ohang, ritm va ma'no kontrasti yaratishda ham faol ishlatilgan. Urg'u orqali badiiy nutq o'zining musiqiylikini, ichki harakatini va ruhiy kuchini namoyon etadi.

NATIJALAR. Urg'uning o'zbek tilshunosligida o'rganilishiga oid fikrlarimizni bayon etdik va jahon tilshunosligida kelib chiqishi haqida to'xtalib o'tsak. Olimlarning ta'kidlashlaricha, tilning fonetika qismi sintaksis qismiga nisbatan ancha mukammal o'rganilgan. Tilshunoslik tarixiga doir adabiyotlarda qayd etilishicha, jahon tishunosligining ilk namunalari qadimi Hindiston, Yunoniston, Rim va Xitoy mamlakatlarida paydo bo'lgan, O'rta va undan keyingi asrlarda tilshunoslikka doir ilmiy qarashlar Yevropa, Arabiston, va O'ta Osiyoda taraqqiy qilgan Hindistonda bundan o'n besh asr ilgari qadimgi hind sanskrit tilida kiritilgan vedalarni jonli hind tilida izohlash, sharhlash asosida tilshunoslik paydo bo'lgan va hind olimlari tilning fonetikasi, grammatikasini, aniqrog'i hamma jihatini o'rganishda katta yutuqlarga erishganlar Panini tuzgan "Ashtadsyan" nomli grammatika ikki ming yil davomida hindlarga xizmat qilgan va milodiy XIII asrga kelib, Vopadeva tuzgan yangi grammatikaga o'z o'zini bo'shatib bergan.

MUHOKAMA. Qadimg Yunanistan. Yevropa tilshunosliga fanining markazi hisoblangan.

Tilshunoslikning grammatik yoki Iskandaraya davri milodiygacha bo'lgan 334-331-yillarida taraqqiy etib, rivojlandi. Bu davrning eng mashhur olimlari Zenodot, Aristotel, Dionisiy, Apolloniy Diskol va boshqalar hisoblanadi. Ular fonetika, etimologiya, sintaksis sohalarida ilmiy tadqiqotlar olib borishgan bo'lsalarda, fonetika sohasida katta yutuqlarga erishganlar, so'z va gapning muhim xususiyatlarini aniqlab, izohlab beradilar.

Miloddan oldingi IV asr o'rtalaridan milodiy VI asr boshlarigacha bo'lgan davrda qadimgi Rim tilshunosligi taraqqiy etadi. Bunda Yuliy Sezar, Mark Terensiy, Varron, Eliya Donata, Verry Flakk, Prissian va boshqalarning xizmatlari katta bo'ldi. Qadimgi Rim tilshunosligida Donata va Pissianing grammatikaga oid yaratgan asarlari lotin tili grammatikasi qurilishining mukammali sifatida juda ko'p asrlar davomida o'rta asrlar davri uchun namuna bo'lib xizmat qilib keldi.

Arab tilshunosligida sintaksis masalalari, hind va yunonlardagidek, grammatikaning bosh bo'limi hisoblangan. Shunga qaramasdan, arablarda sintaksisning tekshirish obyekti sifatida gap, gapning struktur-semantik tahlili kuzatiladi. Ular gapning kamida ikki so'zdan ikki otadan yoki ot va fe'ldan iborat bo'lishini, bu so'zlar o'rtasidagi subyekt-predikat munosabatining o'rganilishini to'g'ri ta'kidlaydilar. Gaplarning tuzilishiga ko'ra otli, fe'lli va holli turlarga bo'linishini qayd etadilar. Otli gaplarning ot so'zdan boshlanishini (masalan, Zayd turibdi), Fe'lli gaplarning esa fe'l so'zdan (masalan, turgan Zayd) boshlanishini aytadilar.

Ularda urg'u kesimdan oldin tushishi haqida aytiladi. Gapning ikkinchi darajali bo'laklar sifatida to'ldiruvchi, hol va izohlovchilar ko'rsatiladi. O'rta Osiyodan yetishib chiqqan Abu Nasr Forobiy, Abu Rayhon Beruniy, Abu Ali ibn Sino, Mahmud Koshg'ariy, Mahind az-Zamaxshariy, Alisher Navoiy, Mirzo Mehdixon va boshqa mashhur qomusiy olimlar tilshunoslik fani taraqqiyotiga ham munosib hissa qo'shganlar.

XULOSA. Xulosa qilib aytganda, so'z urg'usi nutqning muhim fonetik vositalaridan biri sifatida nafaqat ma'no aniqligini ta'minlaydi, balki nutqning ifodaliligi va ta'sirchanligini oshirishda ham muhim o'rin tutadi. Nutqiy jarayonda urg'u so'zlar orasidagi ma'no farqlarini yuzaga chiqarib, tinglovchiga fikrni aniq va ravshan yetkazishga xizmat qiladi.

Shu bilan birga, badiiy matnlarda urgʻuning oʻrni yanada kengayib, u obrazlilikni kuchaytirish, emotsional-ekspressivlikni taʼminlash hamda muallifning estetik niyatini ochib berishda muhim vosita boʻlib xizmat qiladi.

Demak, soʻz urgʻusining nutqiy va badiiy-estetik vazifalari tilning kommunikativ va estetik imkoniyatlarini namoyon etuvchi muhim omillardan biri hisoblanadi. Uni chuqur oʻrganish nafaqat tilshunoslik, balki adabiyotshunoslik nuqtayi nazaridan ham dolzarb ahamiyat kasb etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Karimov I. A. Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch. — Toshkent: Maʼnaviyat, 2008.
2. Mahmudov N. Oʻzbek tilining nazariy asoslari. — Toshkent: Fan, 2015.
3. Madvaliyev A. Hozirgi oʻzbek adabiy tili. — Toshkent: Oʻqituvchi, 2010.
4. Mirziyoyev Sh. M. Erkin va farovon, demokratik Oʻzbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz. — Toshkent: Oʻzbekiston, 2017.
5. Neʼmatov H. Oʻzbek tilining fonetikasi. — Toshkent: Fan, 2004.
6. Oʻrinboyev B. Oʻzbek tilshunosligiga kirish. — Toshkent: Oʻqituvchi, 2007.
7. Usmonov S. Umumiy tilshunoslik asoslari. — Toshkent: Fan, 1992.
8. Gʻulomov A. Oʻzbek tilining grammatikasi. — Toshkent: Fan, 1965.
9. Asqarova M. Hozirgi oʻzbek tilida urgʻu masalalari. — Toshkent: Fan, 1983.